

Rasmda qaysi ertaklar berilgan?
Ularning mualliflari bilan tanishing.



Xans Kristian
Andersen



Aleksandr Sergeyevich
Pushkin

Nima uchun bu ertaklar adabiy ertaklar hisoblanadi?



O'rmondagi ziyofat

Anvar Obidjon

Sher oshxona ochibdi
O'rmonda bugun,
Yovvoyi va xonaki
Hayvonlar uchun.

Pishar turli taomlar
Qozonda "jaz-jaz".
Bo'rivoy – o't qalovchi,
Quyov – bosh oshpaz.

Yumronqoziq masalliq
Tayyorlashda band.
Ho'kiz bobo – qorovul,
Echki – ofitsiant.

Oshxonaki – hashamdor,
Ko'rinmaydi gard.
Eshikka xat yozilgan:
"Tuyog'ingni art!"

Birin-ketin hayvonlar
Keldi har yondan:
Togʻ-u qishloq, yaylovdan
Hamda oʻrmondan.

Xoʻrandalar behisob,
Zoʻrgʻa yetdi joy.
Kuchuk suyak buyurdi,
Maymun – achchiq choy.

Mushuk dedi: “Keltiring –
Sutga toʻgʻrab non.
Yoʻqmi, sizda, mabodo,
Yangiroq sichqon?”

Tulkivoy der: “Bugun sal
Tashqari sovuq.
Menga – qaynoq kakao
Va tirik tovuq”.

Qoʻzi beda soʻradi,
Olmaxon – yongʻoq.
Toʻngʻiz esa buyurdi
Chirik oshqovoq.

Talab qildi Buzoqcha
Kunjara, somon.
Yoqib tushdi Kirpiga
Chagʻir suvilon.

Ishtahadan nolimay
Suli kavshar Ot.
Ikki lagan baqani
Yedi Begemot.

“Menga hang...
ham qarang!” deb
Baqirdi Eshak.
Sekingina dedi Fil:
“Bir tonna xashak!”

Xoʻb yayrashdi hayvonlar
Boʻlib jamuljam.
Faqatgina Toshbaqa
Edi bunda kam.

Toshbaqa ham uzoqda
Koʻrindi, ana.
Afsuski, u kelguncha
Bekik oshxona.



1. O'rmonda nima ochildi?
2. Ertakda qaysi hayvonlar tilga olingan?
3. Ular nima ish qiladi?
4. Mehmonlar nima buyurdi?
5. O'rmonda ochilgan oshxonani qanday tasavvur qilasiz?



taom – ovqat, yemish, yegulik
chag'ir – ola-bula, kulrang
chirik – chirigan
xo'randa – ovqat sotib oluvchi, ovqatlanuvchi



Quyidagi tartibsiz berilgan harflarni o'z o'rniga qo'ying va so'zlarni o'qing. Ertakdan hayvonlar haqidagi ma'lumotlarni topib o'qing.

ilF	geBemot	shakE	maOlxon
To'nizg'	tO	zoBuq	piKir
shukMu	chukuK	muMayn	kiTul



Ertakni ifodali o'qing. Tasavvuringizdagi o'rmon oshxonasining rasmini chizing.